

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING
BUYRUG'I**

**SHNQ 3.01.01-22 "QURILISHDA ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL QILISH"
SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 28-noyabrda hisobga olindi,
hisob raqami 119-son]**

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik **kodeksiga** muvofiq buyuraman:

1. ShNQ 3.01.01-22 "Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish" shaharsozlik normalari va qoidalari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisining 2003-yil 25-dekabrdagi 84-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ShNQ 3.01.01-03 "Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish" shaharsozlik normalari va qoidalari o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan.

4. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. ZAKIROV

Toshkent sh.,
2022-yil 1-noyabr,
189-son
Kelishildi:

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vaziri Sh. XIDOVYATOV

2022-yil 21-oktabr

Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri N. XUSANOV

2022-yil 13-oktabr

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi N. OBLOMURADOV

2022-yil 21-sentabr

ShNQ 3.01.01-22 “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda ShNQ deb yuritiladi) mavjud bo‘lgan, yangi qurilayotgan, kapital ta’mirlanayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino va inshootlarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalari

1. Mazkur ShNQ barcha loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari uchun mo‘ljallangan.
2. Mavjud bo‘lgan, yangi qurilayotgan, kapital ta’mirlanayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino va inshootlarda qurilish ishlari texnologik xaritaga muvofiq kalender reja asosida olib borilishi kerak.
3. Qurilish obyektida bajarilayotgan ishlarning barcha turlari uchun mazkur ShNQning [1-ilovasida](#) keltirilgan namunaga muvofiq jurnal yuritilishi lozim.

2-bob. Atamalar va ta’riflar

4. Mazkur ShNQda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llanilgan:
ishchi loyiha — obyektning ishchi hujjatlari (chizmalari), texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi hujjat;
loyiha hujjatlari — hajmiy-rejali, amaliy va texnikaviy yechimlarni, binolarni, inshootlarni va ularning majmularini qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta’mirlashni, shuningdek obodonlashtirish ishlarining qiymatini belgilovchi hujjatlar;
texnologik xarita — tez-tez takrorlanadigan qurilish-montaj ishlari turlarini va ishni olib borish loyihasi o‘rniga yoki unga qo‘srimcha sifatida foydalaniladigan ishlab chiqarish texnologiyasini belgilovchi hujjat.

3-bob. Qurilishda ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish

5. Qurilish maydonining tashqarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari obyektga kirib kelish yo‘llari qurilishi, transformator podstansiysi yordamida elektr uzatish, suv to‘plovchi inshootlarga ega bo‘lgan suv ta’mnoti tarmoqlari o‘tkazilishi, tozalash inshootlari bilan birgalikda kanalizatsiya kollektorlari o‘rnatalishi, quruvchilar uchun yashash joylarini barpo etilishi, shuningdek qurilishni boshqarish uchun aloqa inshootlari va qurilmalari qurilishini o‘z ichiga oladi.

6. Qurilish maydonining ichkarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari qurilish uchun geodezik rejalash va muhandislik tarmoqlari, yo‘llarni yotqizish, binolar va inshootlarni tiklash uchun geodezik rejalash ishlarini topshirish-qabul qilish hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun qurilish maydonini bo‘shatish ishlarini (hududni tozalash, keraksiz binolarni buzish va h.k.), hududni tekislash, grunt suvlari sathini pasaytirish (zarur bo‘lgan hollarda), mavjud muhandislik tarmoqlarini ko‘chirib qayta yotqizish va yangi muhandislik tarmoqlarni yotqizish, doimiy va vaqtinchalik yo‘llarni, zarur bo‘lgan hollarda nazorat-kiritish rejimini tashkil etgan holda ko‘chma vaqtinchalik to‘siqlarni o‘rnatalish, omborxonasi, yordamchi, maishiy va ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi binolar va inshootlarni joylashtirish, ombor maydonchalarini hamda materiallar, konstruksiyalar va uskunalar uchun xonalarni qurish, ishlar bajarilishini tezkor-dispatcherlik boshqarish uchun aloqa tizimini tashkil etish, qurilish maydonini yong‘inga qarshi suv ta’mnoti va inventar, yoritish hamda signalizatsiya vositalari bilan ta’minalashni o‘z ichiga oladi.

7. Noyob va alohida muhim obyektlar qurilishiga tayyorgarlik ko‘rish maxsus dasturlar bo‘yicha rejimli (seysmometrik, gidrogeologik, geokimyoviy, geodezik, marksheyder, meteorologik, tenzometrik, glatsiologik va h.k.) kuzatuvlarini tashkil etish ishlarini, shuningdek zarur bo‘lgan hollarda, sinov poligonlari, metrologik punktlar va o‘lchash stansiyalarini yaratish ishlarini o‘z ichiga oladi.

8. Qurilish-montaj ishlarni bajarish uchun tayyorgarlik ko‘rishda ishlarni bajarish loyihalari ishlab chiqilgan, shuningdek bino va inshootlarning qismlari va ish turlari bo‘yicha joylarga mahkamlangan geodezik uskunalar yordamida aniqlangan sath belgilari bo‘lishi lozim.

4-bob. Qurilishni tashkil etish va ishlab chiqarish ishlari

9. Murakkab tabiiy va geologik sharoitlarda olib boriladigan qurilishda, shuningdek noyob va alohida muhim obyektlarni barpo etishda qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarish loyihalarida tiklanayotgan va mavjud binolar, shuningdek inshootlar hamda ularning konstruksiyalarini mustahkamligi, turg‘unligi va zilzilabardoshligini ta’minlash bo‘yicha maxsus chora-tadbirlar nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

10. Noyob va alohida muhim obyektlarni qurish bo‘yicha ishlarni bajarish loyihalari tarkibida qurilish ishlarining muvaffaqiyatli bajarilishini va inshootlarning foydalanishga qabul qilishni ta’minlovchi texnik nazorat hamda stansiyalar, poligonlar, o‘lchash postlari va boshqa ishlarni tashkil etish usullarini kiritgan holda zarur bo‘lgan tadqiqotlar (izlanishlar), sinovlar va rejimli kuzatuvlarning dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

11. Qurilishni tashkil etish loyihasida qurilishning umumiy davomiyligi va oraliq muddatlari, kapital mablag‘lar va qurilish montaj ishlari hajmlarining taqsimlanishi, moddiy-texnik resurslar va ularni qoplash manbalari, qurilish — montaj ishlarni bajarishning asosiy usullari va obyekt qurilishini boshqarish tuzilmasi belgilanadi.

12. Ishlarni bajarish loyihasi qurilish-montaj ishlari texnologiyasini, bajarish muddatlarini va resurslari bilan ta’minlash tartibini belgilab beruvchi loyiha hisoblanadi, shuningdek unda bino va inshootlar hamda ularning qismlarini qurishga doir ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish belgilanadi.

13. Qurilishni tashkil etish loyihasining atrof-muhit va tabiiy resurslar muhofazasi, transport, suv ta’minoti, kanalizatsiya, elektr ta’minoti, issiqlik ta’minoti, aloqa, noyob texnologik uskunalar va avtomatika tizimlari montaji, muhim yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini tiklash, qurilishni murakkab tabiiy-iqlim sharoitlarida va ishlarni bajarishning tor ishlab chiqarish sharoitlarida amalga oshirish va shu kabi masalalarga daxldor qismlari amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

14. Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:
obyekt qurilishning texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligi;

muhandislik izlanishlari (obyektlarni rekonstruksiya qilishda — obyektlarni loyiha oldi texnik ko‘rigidan o‘tkazish) materiallari va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari hamda xavfli geologik jarayonlar ta’siriga yo‘liqkan hududlardagi rejimli kuzatuvlarning ma’lumotlari;

qurilish konstruksiyalari, tayyor buyumlar, materiallar, uskunalarni tashish va yetkazib berish bo‘yicha ma’lumotlar;

noyob va alohida muhim obyektlar qurilishi bo‘yicha ma’lumotlar;

rekonstruksiya qilinadigan obyektlarda qurilish-montaj ishlarni bajarish shart-sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

bino va inshootlarning hajmiy-rejaviy yechimlari hamda qurilish obyektini ishga tushirish navbatlari va tugunlarga (uzel) ajratish bilan asosiy ishlab chiqarishning texnologik sxemalari.

15. Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiya etiladigan namuna mazkur ShNQning [2-ilovasiga](#), asosiy loyihami hujjatlarning shakllari esa [3-ilovasiga](#) muvofiq bo‘lishi lozim.

16. Bino va inshootlarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga doir loyiha hujjatini ishlab chiqish bilan bir vaqtning o‘zida muayyan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlarni bajarish usullari va ketma-ketligi ham aniqlashtirilishi lozim.

17. Ishlarni bajarish loyihasini ishlab chiqish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

ishlarni bajarish loyihasining topshirig‘i;

qurilishni tashkil etish loyihasi;

zarur ishchi chizmalar;

konstruksiyalar, tayyor buyumlar, materiallar va uskunalarni yetkazib berishda qurilish mexanizmlaridan va transport vositalaridan foydalanish;

qurilish yuklarini texnologik komplektlashtirish va tashish, shuningdek qurilishni tashkil etish va vaxta usulida ishlarni bajarish shart-sharoitlarini belgilash.

18. Ishlarni bajarish loyihamining tavsiya etiladigan namunasi mazkur ShNQning **4- ilovasida**, asosiy hujjatlarning shakllari esa **5- ilovasida** keltirilgan.

19. O‘ta murakkab konstruksiyalarga va murakkab usullarda bajariladigan bino va inshootlar qurilishi uchun ishchi hujjat tarkibidagi maxsus yordamchi inshootlarga, moslamalarga, qurilmalarga va o‘rnatmalarga ishchi chizmalar ishlab chiqilishi lozim. Ularga quyidagilar kiradi:

noyob uskunani, katta gabaritli va og‘ir vaznli texnologik, qurilish va qurilish-montaj bloklarini tashish va montaj qilish (ko‘tarish, surish, yig‘ish) uchun asbob-uskunalar va moslamalar;

svod-qobiqlarning maxsus qoliplari (echilmaydigan va suriluvchi qoliplar);

grunt suvlarining sathini sun’iy pasaytirish, gruntlarni sun’iy muzlatish va ularni mustahkamlash ishlarining bajarilishi, shu jumladan bunday ishlarni sementatsiya, glinizatsiya, silikatizatsiya, smolizatsiya va termik mustahkamlash usullari bilan bajarilishini ta’minalash uchun qurilmalar;

kotlovanlar va transheyalarning shpuntli to‘sqliari;

uskunani yirik blokli montaj qilish va konstruksiyalarni yiriklashtirib yig‘ish uchun qurilmalar;

yer osti inshootlarini “grunt ichidagi” usul bilan qurish, gruntu zinchash usulini qo’llash bilan yer osti quvur o‘tkazgichlarini o‘tkazish, chuqur joylashadigan inshootlarni qoziq-qobiqlar ustiga joylashtirish va tushish quduqlarini, shuningdek cho‘kuvchan gruntlarda qoziqli poydevorlarni qo’llagan holda qurish uchun asbob-uskunalar va maxsus qurilmalar;

mavjud bino va inshootlar yaqinida burg‘ulash-portlatish ishlarini bajarish vaqtida qo’llaniladigan himoyalovchi qurilmalar;

binolarni siljitchida va ular ustiga qo’shimcha konstruksiyalarni qurishda, ularni murakkab sharotlarda qurishda, shuningdek foydalilanayotgan bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishda zarur bo‘ladigan yordamchi qurilmalar.

5-bob. Moddiy-texnik ta’minot

20. Qurilish-montaj ishlarini bajarish va obyektni qurish uchun elementlar hamda konstruksiyalarni tayyorlashga kerak bo‘ladigan qurilish materiallari va konstruksiyalariga bo‘lgan ehtiyoj loyiha hujjati bilan belgilanadi.

21. Qurilayotgan obyektni moddiy-texnik jihatdan ta’minalash ishlab chiqarish-texnologik ishlab chiqarish asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda, qurilish konstruksiyalari, materiallari va muhandislik uskunalarini yetkazib berish texnologik komplektlar bilan qurilish-montaj ishlarini bajarish texnologiyasi va muddatlariga bog‘langan holda olib boriladi.

22. Materiallar, elementlar, buyumlar, konstruksiyalar va uskunalarni tashish amaldagi davlat standartlari talablariga mos kelishi hamda ularning shikastlanish ehtimoli bartaraf etilishi lozim.

6-bob. Mexanizatsiya va transport ishlari

23. Obyektni qurishda qurilish, montaj va maxsus qurilish ishlarini mexanizatsiyalash kompleksli tarzda va zarur bo‘lgan asbob-anjomlar, inventar va moslamalar bilan birlashtirishda qurilish mashinalari, uskunalar, kichik mexanizatsiya vositalari bilan amalga oshirilishi lozim.

24. Beton, montaj, tosh-g‘isht, suvoq, sanitar-texnik gidroizolatsiyalash, bo‘yoqchilik, oynavandlash va boshqa qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan kichik mexanizatsiyalash vositalari, shuningdek qurilish-pardozlash mashinalari, asbob-uskunalar hamda texnologik anjomlar ishlarni bajarish texnologiyasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

25. Transport ishlarini tashkil etish qurilish materiallari, konstruksiyalari, detallar va uskunalarni yetkazib berishning sxemalarini tanlash, temir yo‘l stansiyalari, daryo portlari va havo yo‘llari bilan bog‘liqlikda transport vositalariga bo‘lgan ehtiyojni asoslash va ularni ta’minalash grafiklarini ishlab chiqish bilan amalga oshiriladi.

7-bob. Qurilish-montaj ishlarining sifatini ta’minalash

26. Obyektda qurilish-montaj ishlarning sifati, ishonchliligi va zilzilabardoshligini ta'minlash texnik, iqtisodiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

27. Qurilish-montaj ishlarning sifatini ishlab chiqarish nuqtai nazaridan nazorat qilish ishchi hujjatlar, konstruksiyalar, buyumlar, materiallar va uskunalarini kirish nazoratidan o'tkazishni hamda alohida qurilish jarayonlari va qurilish-montaj ishlarni qabul qilish nazoratini o'z ichiga oladi.

28. Qurilish jarayonidagi yopiq ishlarga mazkur ShNQning **6-ilovasida** keltirilgan shakl bo'yicha dalolatnomalar tuzilishi lozim. Qurilish jarayonidagi yopiq ishlar dalolatnomalari tugallangan jarayon uchun tuziladi.

Qurilish jarayonidagi yopiq ishlarga dalolatnomalar navbatdagi ishlar boshlanishidan oldin tuzilishi lozim.

29. Muhimlik darjasini yuqori bo'lgan konstruksiyalarning qurilish jarayonida tayyorligini mazkur ShNQning **7-ilovasida** keltirilgan shakldagi oraliq dalolatnomasini tuzish orqali qabul qilish lozim.

30. Noyob va murakkab obyektlarni qurishda muhimlik darjasini yuqori bo'lgan konstruksiyalarni qabul qilish va yopiq ishlar dalolatnomalari loyihadagi alohida ko'rsatmalar va texnologik shartlarni hisobga olgan holda tuzilishi lozim.

31. Qurilish-montaj ishlarning sifatlari bajarilishi qurilish-montaj ishlari va qurilishi tugallangan obyektlar sifatining amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga va ishchi chizmalarga muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi lozim.

8-bob. Qurilishda ishlab chiqarishini tashkil etishda atrof-muhit muhofazasiga qo'yilgan talablar

32. Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil etishda quyidagi atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ishlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

erlarni rekultivatsiyalash;

tabiiy resurslarning yo'qotilishini bartaraf etish;

tuproq, suv havzalari va atmosferaga zararli chiqindilar tashlanishini oldini olish va ularni zararli chiqindilardan tozalash.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar va ishlar loyiha hujjatida, qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarish loyihalarda nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

33. Qiyaliklarni yuvilishdan himoya qilmasdan turib qurilish maydonchalaridan bevosita shu qiyaliklarga suv oqizilmaydi. Qurilish maydonchalarida tekislash ishlarni bajarish jarayonida keyinchalik ishlatish uchun yaroqli bo'lgan tuproq qatlami olinishi va maxsus ajratilgan joylarga to'plab qo'yilishi lozim.

34. Seliteb (obyektlar qurilishi mumkin bo'lgan) hududlarda qurilish-montaj ishlarni bajarishda havo changlanishi va gazlanishining oldini olishga qo'yiladigan talablarga rioya qilish lozim.

35. Qurilish maydonchasida burg'ulash ishlarni bajarish jarayonida suvli gorizont qatlamlariga yetganda, yer osti suvlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilishi lozim.

Zaif gruntlarni sun'iy mustahkamlash ishlarni bajarishda pastki gorizontlarda yotuvchi yer osti suvlarining ifloslanishini bartaraf etish bo'yicha loyihsada chora-tadbirlar nazarda tutilishi lozim.

ShNQ 3.01.01-22 "Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish" shaharsozlik normalari va qoidalariiga
1-ILOVA

Ishlarning umumiy jurnali

Qurilish pudrat tashkiloti: _____

Ishlarning umumiy jurnali № _____

Obyekt qurilishi bo'yicha

(korxona, bino, inshoot)

Obyekt manzili _____

Obyekt qurilishi va ishlarning umumiy jurnalini yuritish uchun mas'ul shaxs

lavozimi, F.I.O. va imzosi _____

Bosh loyiha tashkiloti: F.I.O.

loyiha bosh muhandisining imzosi _____

Buyurtmachi (tashkilot): lavozimi, F.I.O. va texnik nazorat rahbari (raisi)ning imzosi

Ishning boshlanishi:

shartnoma bo'yicha _____

amalda _____

Ishlarning tugashi (ekspluatatsiyaga topshirish):

shartnoma bo'yicha _____

amalda _____

Mazkur jurnalda _____ ta bet raqamlangan va ip o'tkazilib bog'langan.

Jurnalni tutishga bergan qurilish tashkiloti rahbarining lavozimi, F.I.O. va imzosi _____

Berilgan vaqt

Qurilayotgan obyekt, korxona, bino yoki inshootning asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, ish unumdarligi, foydali maydoni, sig'imi va h. va shartnomaviy narxi: _____

Instansiyan tasdiqlovchi: loyiha-smeta hujjatini ekspertizadan o'tkazish va loyiha (ishchi loyiha)ni tasdiqlash:

Subpudratchi tashkilotlar va ular tomonidan bajariladigan ishlar:

Loyiha hujjatini ishlab chiqqan tashkilot: _____

Titul varag‘idagi yozuvlarga kiritilgan o‘zgartirishlarni belgilash

Obyekt qurilishidagi muhandis-texnik xodimlar ro‘yxati

1-jadval

F.I.O.	Obyekt qurilishi ishlarining boshlanish sanasi	Ishlarni bajarishga ruxsat olinganligi belgisi	Obyekt qurilishi ishlarining tugash sanasi

**Yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni oraliq davrda qabul qilish dalolatnomalari va yopiq
ishlarni ko‘zdan kechirish**

2-jadval

T/r	Dalolatnomalarning nomlanishi (o‘rnatilgan joyini ko‘rsatgan holda)	Imzo va sana

Nazorat natijalarining yozma ifodasi va qurilish-montaj ishlari sifatini baholash

3-jadval

Sana	Konstruktiv qismlar va elementlarning nomlanishi, ularning joylashishini chizmalar raqamlarini havola qilgan holda ko‘rsatish	Sifatni baholash natijalari	Ishlar sifati baholangan sana va imzo

Ishlarning bajarilishi to‘g‘risida ma’lumotlar

4-jadval

Sana	Ishlarning qisqacha bayoni va ularni bajarish shart-sharoitlari

ShNQ 3.01.01-22 “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalariga
2-ILOVA

Qurilishni tashkil etish loyihasining tarkibi va mazmuni

1. Qurilishni tashkil etish loyihasi qurilish ishlarining loyihada (ishchi loyihada) belgilangan butun hajmi uchun ishlab chiqiladi.

2. Qurilishini tashkil etish loyihasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) qurilishning taqvimiylarini (sarflar, xarakteristikalar, shu jumladan mobil bino va inshootlarning joylashishi, vaqtinchalik binolar, shu jumladan uskunalarini (og‘ir vaznli va yirik gabaritli uskunalar), konstruksiyalar va materiallar hamda buyumlarni transportirovka qilish uchun boshqa yo‘llar, yuk ko‘tarish qobiliyati katta bo‘lgan kranlarni ko‘chirish yo‘llari, qurilish maydonini elektr energiyasi, ichimlik suvi va issiqlik ta’minoti bilan ta’minalash manbalarini ko‘rsatgan holda vaqtinchalik muhandislik kommunikatsiyalarini mavjud tarmoqlarga ulash joylari, montaj kranlari va boshqa qurilish mashina va mexanizmlarning joylashish o‘rnlari hamda harakatlanish yo‘llari, mavjud va buziladigan qurilmalar);

Tayyorgarlik ko‘rish davri uchun alohida taqvimiylar reja (ish hajmlari oylar kesimida taqsimlanib) tuziladi.

b) qurilish bosh rejasini (doimiy bino va inshootlarning joylashishi, vaqtinchalik binolar, shu jumladan mobil bino va inshootlarning o‘rnatalish joylari, doimiy va vaqtinchalik temir yo‘l va avtomobil yo‘llari hamda uskunalarini (og‘ir vaznli va yirik gabaritli uskunalar), konstruksiyalar va materiallar hamda buyumlarni transportirovka qilish uchun boshqa yo‘llar, yuk ko‘tarish qobiliyati katta bo‘lgan kranlarni ko‘chirish yo‘llari, qurilish maydonini elektr energiyasi, ichimlik suvi va issiqlik ta’minoti bilan ta’minalash manbalarini ko‘rsatgan holda vaqtinchalik muhandislik kommunikatsiyalarini mavjud tarmoqlarga ulash joylari, montaj kranlari va boshqa qurilish mashina va mexanizmlarning joylashish o‘rnlari hamda harakatlanish yo‘llari, mavjud va buziladigan qurilmalar);

v) tashkiliy-texnologik sxemalar (binolarning katta komplekslarini, shuningdek murakkab va noyob inshootlarning loyiha halashda keltiriladi. Bu sxemalar ishlarning texnologik ketma-ketligini ko‘rsatish orqali bino va inshootlarning barpo etishning optimal ketma-ketligini aniqlab beradi);

g) asosiy qurilish, montaj va maxsus qurilish ishlarining loyiha hujjatida belgilangan hajmlarining ro‘yxati (asosiy bino va inshootlarning ishga tushiriladigan yoki shaharsozlik komplekslarini bo‘yicha ishlar hamda qurilish davrlari bo‘yicha ajratilgan holda mazkur ShNQning 3-ilovasi **2-shakliga** muvofiq ko‘rsatiladi);

d) qurilish konstruksiyalari, buyumlari, materiallari va uskunalarga bo‘lgan ehtiyojlar ro‘yxati (qurilish materiallarni sarflashning amaldagi normalaridan kelib chiqqan holda qurilish obyektiga hamda asosiy bino va inshootlarga ishlarning hajmlari uchun tuzilgan ishlarning kalendar davrlarini taqsimlash mazkur ShNQning 3-ilovasi **3-shakliga** muvofiq amalga oshiriladi);

e) qurilish uchun asosiy qurilish mashinalariga va transport vositalariga bo‘lgan ehtiyojlar ro‘yxati (mazkur ro‘yxat qurilish mashinalari hamda transport vositalarining ish unumdarligi normalariga muvofiq hamda ish hajmlari va yuklarni tashish obyektlari asosida tuziladi);

j) tushuntirish xatining tarkibi:

qurilish sharoitlari va murakkabligini tafsiflovchi xarakteristika;

qurilish, montaj va maxsus qurilish ishlarini, shu jumladan mavsumiy xarakterdagi ishlarni bajarish muddatlarini hamda murakkab bino va inshootlarning qurilish bo‘yicha texnologik yechimlarni ko‘rsatgan holda qish sharoitlarida, shuningdek quruq-issiq iqlim sharoitlarida bajariladigan ushbu ishlarni bajarish metodlari va ularni birgalikda olib borish mumkinligining asoslab berilganligi;

ishlarni vaxtali metod bilan bajarish bo‘yicha chora-tadbirlar;

mehnat muhofazasi bo‘yicha chora-tadbirlar;

atrofdagi tabiiy muhitni saqlash shartlari;

asosiy qurilish mashinalari, mexanizmlari, transport vositalari, elektr energiyasi, bug‘, suv, kislorod, atsetilin, siqilgan havoga, shuningdek mobil binolar va inshootlarning to‘plami bo‘yicha yechimlarni hamda namunaviy loyihalarning qabul qilinganligini ko‘rsatgan holda vaqtinchalik bino va inshootlarga bo‘lgan ehtiyojlarining asoslanganligi;

asosiy qurilish tashkilotlarining ro‘yxati;

materiallar, konstruksiyalar va uskunalarini joylashtirish uchun maydonchalarning jihozlanganlik darajasi va ular o‘lchamlarining, shuningdek og‘ir vaznli katta gabaritli uskunalar va yiriklashtirilgan konstruksiyalarni ko‘chirish bo‘yicha yechimlarning asoslanganligi;

maxsus yordamchi inshootlarning moslamalar, shuningdek murakkab vaqtinchalik inshootlarning tarmoqlar ro‘yxati;

qurilishni tashkil etish loyihasida qabul qilingan qurilish konstruksiyalarini qurish va uskunalarini montaj qilish metodlari bilan bog‘liq holda ishchi chizmalarda hisobga olinishi lozim bo‘lgan talablar;

obyekt qurilishini davom etish muddatining asoslanganligi;
barcha ehtiyojlar va xarajatlarning asoslari ularni qoplash manbalari bo‘yicha yechimlardan
iborat bo‘ladi.

3. Qurilishni tashkil etish loyihamining tarkibi va mazmuni obyekt qurilishining murakkabligini hisobga olib hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarga, bu yechimlarni unifikatsiyalash va tipizatsiyalash darajasiga, maxsus yordamchi inshootlar, moslamalar, qurilmalar va o‘rnamatmalarni qo‘llash zarurligiga, alohida ish turlarining o‘ziga xos jihatlariga, shuningdek, qurilish maydoniga materiallar, konstruksiyalar va uskunalarini yetkazib berish shart-sharoitlariga bog‘liq holda to‘ldiriladi.

Noyob texnologik uskuna va prinsipial jihatdan yangi texnologiya qo‘llaniladigan murakkab obyektlar, shuningdek yangi konstruksiyalar ko‘proq qo‘llaniladigan binolar yoki qurilishi o‘ta murakkab geologik yoki tabiiy sharoitlarda amalga oshirilishi kutilayotgan korxonalar va inshootlar uchun qurilishni tashkil etish loyihasi tarkibiga ushbu ilovaning **2-bandida** keltirilganlarga qo‘shimcha tarzda quyidagilar kiritiladi:

a) barpo etiladigan konstruksiyalar, bino va inshootlarning sifati hamda ishonchlilagini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlari, sinovlar va rejimli kuzatuvlarni o‘tkazish ketma-ketligi hamda muddatlari bo‘yicha ko‘rsatmalar;

b) qurilish ishlari ustidan aloqa-dispetcherlik boshqaruvini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari.

4. Ishlab turgan korxonalar, binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishda qurilishni tashkil etish loyihamida ushbu ilovaning **2** va **3-bandalarida** keltirilgan talablardan tashqari quyidagilar kiritiladi:

a) ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatish bilan bog‘liq bo‘lmagan davrda bajariladigan ishlar va ishlab chiqarish jarayonini to‘liq va qisman to‘xtatish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar tarkibi;

b) qurilish bosh rejasida foydalanishda bo‘lgan bino va inshootlar, rekonstruksiya qilinmaydigan muhandislik tarmoqlari, yangi quriladigan bino va inshootlar hamda tarmoqlar, buziladigan va demontaj qilinadigan bino va inshootlar, buziladigan va qayta yotqiziladigan muhandislik tarmoqlari, yangi tarmoqlarning mayjud bo‘lgan tarmoqlarga ularish joylari, hududdagi o‘tish yo‘llari, quruvchilar va korxona xodimlarining xavfsiz o‘tish yo‘laklari ko‘rsatilgan ma’lumotlar;

v) tor joylar va zararli sharoitlarda bajariladigan ishlar ro‘yxati va hajmlarini, shuningdek ularni xavfsiz bajarishning qo‘shimcha chora-tadbirlari, rekonstruksiya ishlarining ustidan operativ rahbarlik qilish tartibi, yong‘in va portlashga qarshi xavfsizlik chora-tadbirlari, montaj va demontaj ishlarini bajarishda saqlab qolinadigan konstruksiyalarining turg‘unligini ta’minlovchi tadbirlar.

5. Umumiy tarmoq tarkibidagi magistral inshootlarni (magistral temir va avtomobil yo‘llari, magistral neft va gaz o‘tkazgichlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari va b.) qurishda qurilishni tashkil etish loyihasi tarkibiga mazkur ilovaning **2** va **3-bandalarida** keltirilgan talablardan tashqari quyidagilar kiritiladi:

a) trassa uchastkalari bo‘yicha asosiy qurilish-montaj ishlarining hajmi va mehnat sig‘imi keltirilgan ma’lumot;

b) tabiiy to‘silqar va ularni aylanib o‘tish joylari hamda ularni maxsus vositalar bilan bartaraf etish usullari, shuningdek daryolarning kechuv joylari ko‘rsatilgan ma’lumotlar;

v) trassaning alohida uchastkalarida qurilishga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish korxonalarining moddiy-texnik bazalari va energetik ta’milot obyektlari, shuningdek quruvchilar uchun yashash posyolkalarining joylashish o‘rinlari;

g) yuklarni tushirish stansiyalarini, oraliq omborlar va vaqtinchalik kirib kelish yo‘llari, shu jumladan inshoot trassasi bo‘ylab vaqtinchalik yo‘li ko‘rsatilgan moddiy-texnik resurslarni yetkazib berish transport sxemasi;

d) qurilayotgan temir va avtomobil yo‘llari bo‘ylab joylashgan aloqa va elektr uzatish tarmoqlarning alohida uchastkalaridan qurilish ehtiyojlari uchun foydalanish imkonini bo‘yicha ko‘zda tutilgan yechimlari.

6. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini qurish uchun mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo‘sishma tarzda ichki xo‘jalik yo‘llari ham qurilishi ham ko‘zda tutiladi (bunda, yer polotnosi bo‘yicha vaqtinchalik harakatlanishni ta’minlagan holda hamda trassaning o‘tib bo‘lmaydigan va qiyinchilik bilan o‘tiladigan uchastkalarini yaxshilash ishlari amalga oshiriladi).

7. Gidrotexnika va suv xo‘jaligi obyektlarini qurishda mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo‘sishma tarzda qurilishni tashkil etish loyihasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) taqvimiylar daryo bo‘yicha suvning sarflanish hajmlarini ko‘rsatgan holda o‘tkazilish muddatlarini, o‘zanni to‘sish (berkitish) va suv omborining to‘lish muddatlarini qurilish davrining alohida bosqichlarida ko‘rsatish, shuningdek gidrouzel yoki gidrotexnika inshootini rekonstruksiya qilishda ularni ekspluatatsiya vaqtidagi minimal vaqt uzilishlarini ko‘zda tutish;

b) qurilish bosh rejalarida qurilish davrida daryodan suv olinishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan inshootlar va qurilmalarning joylashishini ko‘rsatish, uzel yoki gidrotexnika inshootlari kompleksini qurish bo‘yicha ishlarning bajarilish navbatini ajratib chiqish, sug‘oriladigan maydonlarni ekspluatatsiyaga qabul qilish navbatini ko‘rsatish lozim. Sug‘orish va quritish tizimlari qurilishining inshootlar joylashuvni rejasida ularni ishga tushirish navbatini, ekspluatatsion va qurilish uchastkalarining chegaralarini, karyerlarning joylashishini, yirik inshootlar bo‘yicha esa hududlardan suvni qaytarish va ularning suv bilan bosiladigan chegaralarini, aylanma kanallar va vaqtinchalik ko‘priklarni ko‘rsatgan holda sug‘oriladigan hamda quritiladigan hududning chegaralari va maydonini ko‘rsatish;

v) daryodan oqiziladigan suvni o‘tkazish sxemalarini, shuningdek qurilish davrida daryo o‘zanini to‘sish va suv oqimini qaytarish usullarini ishlab chiqish;

g) suv chiqarish tizimlarini qayta qurish bo‘yicha qurilish-montaj ishlarni bajarishda qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining uzlusiz sug‘orilishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘zda tutish lozim.

8. Foydali qazilmalarni va boshqa yer osti boyliklarini qazib olish bo‘yicha tog‘-kon korxonalar qurilishida mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo‘sishma tarzda qurilishni tashkil etish loyihasida quyidagilar qo‘shiladi:

a) kon stvollar, gorizontal hamda qiya o‘tkazmalar va kameralarni o‘tkazish sxemalarini (agar ular namunaviy stvollar, o‘tkazmalar, kameralardan farq qilsa);

b) kopyorlar va yer osti qurilmalarining turini tanlashni asoslab beruvchi ma’lumot (ulardan tog‘-kon qazish ishlari davrida vaqtinchalik foydalanilganda);

v) tog‘-kon ishlarni qazish davrlari bo‘yicha tog‘-kon qazilmalarining sxemalarini va ularni shamollatish rejimlarini, qazilmaga beriladigan havoni isitish va sovutish bo‘yicha yechimlarni, shuningdek chang, gazlar, tog‘ jinslari, ko‘mir, gazlarning to‘satdan otilib chiqilishiga, tog‘ silkinishi zarbalarini va toshlarning o‘pirilib tushishiga, suyuq grunt va suvning yorib o‘tishiga qarshi choratadbirlar;

g) stvollar va kon kovlanmalarini o‘tkazishda suv qaytarish sxemalari, shaxta suvlarini qaytarish va tozalash bo‘yicha yechimlar.

9. Sovuq tabiiy sharoitlarda obyektlarni qurishda mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo‘sishma tarzda qurilishning tayyorgarlik jarayoniga, uni tashkil etish va amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan quyidagi fizik, geografik va iqtisodiy omillar hisobga olinishi kerak:

a) tog‘li va baland tog‘li hududlar (tumanlar) uchun:

quruvchilar ishlashi uchun maxsus adaptatsiyalangan rejimlarning saqlanishini talab etuvchi pasaytirilgan barometrik bosim;

shiddatli shamolni va yuqori chaqmoq tarqaluvchanligi;

ko‘chkilar, sel oqimlari, yer o‘pirilishi va grunt ko‘chishi hodisalari;

hududga yetib borish qiyinligi (katta qiyaliklar, sathlarning keskin o‘zgarishlari);

b) cho‘lli va yarim cho‘lli (dashtli) va o‘ta issiq iqlimli tumanlar uchun:

tashqi havoning kunduzgi yuqori temperaturalari;

katta hududlarda mahalliy suv ta'minoti manbalarining mavjud emasligi va shunga bog'liq ravishda suvni tozalash, tuzsizlantirish, tashish, sovutish va saqlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar; turg'unligi past bo'lган qumli gruntlardagi o'simlik qatlamini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar.

10. Xavfli geologik jarayonlar kechadigan hududlarda (tumanlarda) obyektlarni qurishda mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo'shimcha tarzda qurilishni tashkil etish loyihasida quyidagi talablar hisobga olinishi lozim:

alohida xossalarga ega bo'lган (cho'kuvchan, ko'pchiydigan) gruntli hududlarda obyektlar qurilishini amalga oshirishda gruntlarni keraksiz namlanishini oldini oluvchi suv oqimini aylantirib o'tkazish ishlari, vaqtinchalik suv ta'minoti tizimlari qurilishi va ekspluatatsiya qilinishini tashkil etish hamda gruntlarning cho'kishini tizimli ravishda nazorat qilish bo'yicha maxsus chora-tadbirlarni birinchi navbatda amalga oshirish.

11. Alohida tabiiy sharoitlarda obyektlarni qurishda qurilishni tashkil etish loyihasi mazkur ilovaning **2** va **3-bandlarida** keltirilgan talablarga qo'shimcha tarzda quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

a) yer ko'chishi va o'pirilishiga qarshi himoya inshootlari uchun:

qurilish davrida yer ko'chishi va o'pirilishi jarayonlari faolligi va jadalligi prognozi;

himoya inshootlarini qurish davrida qiyaliklar va nishabliklarning turg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari;

er ishlarini yilning yomg'irli davrlari boshlangunga qadar tugatish yoki vaqtinchalik to'xtatish zarurligiga bog'liq holda hamma ishlarni bajarishning qat'iy navbati va muddatlari hisobga olingan taqvimiyligi rejasi;

er ko'chishi mumkin bo'lган zonada grunt uyumlarini qurilishiga yo'l qo'ymasdan gruntu joylashtirish va to'plash bo'yicha yechimlar;

suvni aylantirib o'tish, suv sathini pasaytirish va gruntlarni mustahkamlashning maxsus usullari bo'yicha yechimlar;

b) selga qarshi inshootlar uchun:

zarur bo'lган hollarda suv toshqinlari va sel oqimlarini qurib bitkazilmagan inshootlar orqali (ularning butunligini saqlagan holda) o'tkazib yuborish bo'yicha yechimlar;

mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda alohida ish turlarini bajarishning asoslangan mavsumiyligi bo'yicha yechimlar;

izlanish natijalari bo'yicha sel hosil bo'lishining ehtimoliy muddatlari to'g'risidagi ko'rsatmalarni qurilish kalendar rejasida keltirilishi;

sel hosil bo'lishini kuzatish xizmati punktlarini joylashtirish hamda ushbu punktlar va qurilish dispetcherlik punkti orasida ishonchli radio aloqani ta'minlash bo'yicha materiallar;

ishlab chiqarish bazasi obyektlarini, yashash posyolkasini va kirib kelish yo'llarini, shuningdek odamlar va qurilish texnikasini evakuatsiya qilish yo'llarini xavfsiz zonaga joylashtirish bo'yicha materiallar;

sel hosil bo'lish xavfi bo'lган davrda ishlarni bajarish rejimiga qo'yiladigan talablar.

ShNQ 3.01.01-22 "Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish" shaharsozlik normalari va qoidalariiga
3-ILOVA

Qurilishni tashkil etish loyihasi tarkibidagi asosiy loyiha hujjatlarining shakllari

1-shakl

Qurilishning kalendar rejasি

(obyekt nomi)

T/r	Alovida binolar, inshootlar yoki ish turlarining nomi	Smeta narxi, ming so'm		Sarf-xarajatlar va qurilish-montaj ishlari hajmlarini qurilish davrlari (kvartallar, yillar) bo'yicha taqsimlash, ming so'm
		Barchasi	Shu jumladan, qurilish-montaj ishlaringin hajmi	
A	B	1	2	3 — 14

1.				
2.				
3.				

Izoh:

“B” bo‘yicha nomenklatura qurilish turi va qurilishning o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq ravishda o‘rnatiladi; qurilish-montaj ishlari hajmlarining taqsimlanishi kasr ko‘rinishida beriladi. Kasrning suratida sarf-xarajatlar ko‘rsatilsa, kasrning maxrajida qurilish-montaj ishlarining hajmi ko‘rsatiladi (turar joy-fuqaro obyektlari uchun oylar bo‘yicha keltiriladi).



Loyha bosh muhandisi

_____ (imzo)

MUVOFIQLASHTIRILDI:

Buyurtmachi

_____ (imzo)

Pudrat tashkiloti

_____ (imzo)

2-shakl

Asosiy qurilish, montaj va maxsus qurilish ishlari hajmlarining RO‘YXATI

T/r	Ishlarning turi	O‘l. bir.	Qurilish-montaj ishlarining hajmlari		
			Jami	Shu jumladan, alohida binolar, inshootlar, ishga tushiriladigan yoki shaharsozlik komplekslari bo‘yicha	Qurilish davrlari bo‘yicha
A	B	V	1	2	3 — 14
1.					
2.					
3.					
4.					

Izoh:

ishlar ro‘yxati qurilish turi va uning o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq ravishda belgilanadi; qurilishning komplekt-blokli metodi qo‘llanilishi hamda qurilish konstruksiyalari va uskunalarining yiriklashtirilgan bloklarda montaj qilinishi ajratilib ko‘rsatiladi.

Loyha bosh muhandisi

_____ (imzo)

MUVOFIQLASHTIRILDI:

Buyurtmachi

_____ (imzo)

Pudrat tashkiloti

_____ (imzo)

3-shakl

Qurilish konstruksiyalari, materiallari va uskunalarga bo‘lgan ehtiyojlarning RESURSLI RO‘YXATI

T/r	Nomlanishi	O‘l. bir.	Jami qurilish bo‘yicha	Shu jumladan asosiy obyektlar bo‘yicha	Shu jumladan qurilishning kalendor davrlari bo‘yicha
A	B	V	1	2	3
1.	Yig‘ma temir beton konstruksiyalar	dona			
2.	Po‘lat konstruksiyalar	t			
3.	Yog‘och konstruksiyalar	m ³			
4.	Qolip jihozlari	m ²			

5.	Qurilishda qo'llaniladigan neftli bitumlar	t			
6.	Sterjenli po'lat armatura	t			
7.	Konstruksion po'lat	t			
8.	Oiddi tunukasimon prokat po'lat	t			
9.	Sanoat uchun metall buyumlar (metizalar)	t			
10.	Relslar	t			
11.	Po'lat quvurlar				
12.	Cho'yan quvurlar	m			
13.	Bosimli va bosimsiz quvurlar	m			
14.	Kanalizatsiya va drenaj uchun keramik quvurlar	m			
15.	Asbest sementli quvurlar va muftalar	m			
16.	Termoplastli quvur va quvur o'tkazgich detallari	m			
17.	Shisha quvurlar va ularning tugun qismlari	Shartli diametr, m			
18.	Plastmassalar, polimerizatsiyalangan smolalar asosidagi materiallar va yarim tayyor mahsulotlar	kg			
19.	Lok-bo'yoq materiallari	kg			
20.	Yog'och tayyorlash va yog'ochni qayta ishlash sanoati mahsulotlari (g'o'la ko'rinishidagi yog'och, kesilgan yog'och)	m ³			
21.	Chaqiq tosh	m ³			
22.	Shag'al	m ³			
23.	Qurilish uchun tabiiy qum	m ³			
24.	Xarsang tosh	m ³			
25.	G'ovakli to'ldiruvchilar	m ³			
26.	Asbest	t			
27.	Sement	t			
28.	Qurilish ohagi	t			
29.	Qurilish g'ishti (shu jumladan toshlar)	dona			
30.	Issiqlik va tovush izolatsiya materiallari	m ³			
31.	O'ramli, tom yopish va gidroizolatsiya materiallari	m ²			
32.	Qurilish shishasi	m ²			
33.	Narxi qurilish-montaj ishlarining narxiga kiritiladigan uskunalar	ming so'm/t			
34.	Kabel mahsulotlari (asosiy markalar bo'yicha)	ming so'm			
35.	O'rnatish simlari, yoritish uchun ishlataladigan shnur, izolatsiyalanmagan sim	m			
36.	Alyuminiy konstruksiylar	t			
37.	Germetiklar	kg			

38.	Elim	kg			
39.	Uskunalar va nazorat-o‘lchov uskunalar (texnologik, energetik, ko‘tarish-transport, nasos-kompressorli, umum zavod, elektr-texnik, sanitar-texnik uskunalar, asosiy nomenklatura bo‘yicha avtomatlashtirish tizimlari)				

Izohlar:

konstruksiyalar, buyumlar, materiallar va uskunalarning nomenklaturasi (mazkur ilovaning B ustuni) qurilish turi va uning o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq holda obyekt qurilishiga tuzilgan resursli smetaga muvofiq aniqlanadi;

materialarga bo‘lgan ehtiyoj kasr ko‘rinishida ko‘rsatiladi. Kasrning suratida umumiyl ehtiyoj, maxrajida esa qurilish sanoati korxonalarida konstruksiyalar va buyumlarni tayyorlash uchun ishlataligan materiallarni chiqarib tashlagan holda materialarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatiladi; resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarni taqsimlashda ajratilib ishga tushiraladigan komplekslarni resurslar bilan ta’minalash, shuningdek qurilishning keyingi davrlari uchun zarur bo‘lgan zaxira hajmi ko‘zda tutilishi lozim.

Loyha bosh muhandisi

_____ (imzo)

MUVOFIQLASHTIRILDI:

Buyurtmachi _____

_____ (imzo)

Pudrat tashkiloti

_____ (imzo)

ShNQ 3.01.01-22 “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalariiga
4-ILOVA

Ishlarni bajarish loyihasining tarkibi va mazmuni

1. Binolar, inshootlar yoki ularning qismlari (tugunlari)ni qurish bo‘yicha ishlarni bajarish loyihasi tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) qurilish ishlarini bajarish ketma-ketligi, ularning hajmlari va bajarish muddatlarini belgilaydigan ishlarni bajarishning mazkur ShNQning 5-ilovasidagi **1-shakliga** muvofiq kalender grafigi;

b) quyidagilar ko‘rsatilgan qurilish bosh rejasi:

qurilish maydonining chegaralari va shu maydon to‘siqlarining turlari, ishlab turgan va muvaqqat yer osti, yer usti hamda havo orqali o‘tuvchi tarmoqlar va kommunikatsiyalar, doimiy va muvaqqat yo‘llar, transport vositalari va mexanizmlarning harakatlanish sxemalari, qurilish mashinalari va yuk ko‘taruvchi mashinalarning (ularning harakatlanish yo‘llari va ta’sir qilish zonalarini ko‘rsatgan holda) o‘rnatilish joylari, doimiy, quriladigan va muvaqqat binolar, geodezik rejallah asosining belgilarini o‘rnatish joylari, xavfli zonalar, ishchilarni ish yaruslariga (qavatlarga) ko‘tarish vositalari va yo‘llari, shuningdek binolar va inshootlarga o‘tish yo‘laklari, erga ulanish konturlarini ko‘rsatgan holda qurilish maydonlarini elektr energiyasi bilan ta’minalash va yoritish manbalari hamda vositalarining joylashishi, qurilish chiqindilarini to‘plash qurilmalarini o‘rnatish joylari, materiallar va konstruksiyalarni joylashtirish maydonchalari va xonalari, konstruksiyalarni yiriklashtirib yig‘ish maydonchalari, quruvchilarga sanitar-maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari, ichimlik suvi o‘rnatmalari va dam olish joylari, xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan ishlarni bajarish zonalarini joylashtirish, shuningdek cho‘kuvchan gruntlarda suv to‘plash punktlari, vaqtinchalik

inshootlar va namlik bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning mexanizatsiyalashgan o‘rnatmalarini bino va inshootlardan relyefi past bo‘lgan tomondagi joylarga ega bo‘lgan qurilish maydonchasiga joylashtirilishi hamda ular atrofidagi maydonlar suvning tashkil etilgan tez chiqarilishini ko‘zda tutgan holda tekislangan bo‘lishi lozim;

v) qurilish konstruksiyalari, buyumlari va uskunalarini obyektga yetkazib berish grafigi mazkur ShNQning 5-ilovasidagi **2-shaklga** muvofiq;

g) sifatni nazorat qilish, ishlarni bajarish metodlari, mehnat sarfi va materiallar, mashinalar, asbob-anjomlar, ishchi-xodimlarning himoya moslamalari va vositalariga bo‘lgan ehtiyojlar, shuningdek korxonalar, binolar, inshootlarni rekonstruksiya qilishda demontaj ishlarning ketma-ketligi ko‘rsatilgan alohida ish turlarini bajarishga tuzilgan texnologik xaritalar (sxemalar) (tegishli namunaviy hujjatdan foydalangan holda);

d) geodezik tuzilmalar va o‘lchashlarni bajarish uchun belgilarni joylashtirish sxemalarini kiritgan holda geodezik ishlarni bajarish bo‘yicha yechimlarni, shuningdek qurilish-montaj ishlari bajarilishining zarur bo‘lgan aniqligi va shu ishlarni geodezik nazorat qilishning texnik vositalari to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar;

e) ShNQ 3.01.02 da aniqlangan xavfsizlik texnikasi bo‘yicha yechimlar va obyektlarni tor sharoitlarda rekonstruksiya qilishda maxsus xavfsizlik chora-tadbirlari;

j) ish grafiklarini, ishlarni bajarishda texnologik operatsiyalarga rioya qilishda mehnat va dam olish rejimlarini o‘z ichiga kirituvchi ishlarni 2 va 3 smenali rejimda va vaxtali metod bilan bajarish bo‘yicha tadbirlar;

z) zarur bo‘lganda ta’midot manbalaridan tarmoqlarni olib borish bo‘yicha ishchi chizmalarni ishlab chiqish bilan suv, issiqlik va energiya ta’mnotinining vaqtinchalik tarmoqlarini o‘tkazish hamda qurilish maydoni va ish joylarini yoritish bo‘yicha yechimlar;

i) texnologik inventar va montaj asbob-anjomlarining ro‘yxati, shuningdek yuklarni ilish va ko‘tarish (stropovkalash) sxemalari;

k) quyidagilarni o‘z ichiga olgan tushuntirish xati:

ishlarni bajarish, shu jumladan qish mavsumida va quruq-issiq iqlim sharoitlarida ishlarni amalga oshirish bo‘yicha yechimlarning asosnomasini;

energetik resurslarga bo‘lgan ehtiyoj, uni ta’minalash va qoplash bo‘yicha yechimlarni;

ehtiyojlarni hisoblash va ularni qurilish maydoni uchastkalariga bog‘lash shartlarini asoslab berish bilan mobil (ko‘chma) bino va inshootlar hamda qurilmalarning tavsiyaviy ro‘yxatini;

qurilish maydonidagi hamda bino va inshootlardagi materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va uskunalarining saqlanishimi ta’minalashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni;

mavjud (ishlab turgan) binolar va inshootlarni shikastlanishlardan himoya qilish va tabiatni qo‘riqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni;

qurilish-montaj ishlarning hajmlarini va ularni bajarish ketma-ketligini, binoning $1m^3$ hajmiga va $1m^2$ yuzasiga to‘g‘ri keladigan mehnat sarfi hamda mexanizatsiya darajasini kiritgan holda ishlar fizik hajmlarining birligi uchun hisoblangan texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni.

2. Alovida ish turlari (montaj, sanitari-texnik, pardozlash, geodezik va shu kabi ishlar)ni bajarish loyihasi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

ishlarni ularning turlari bo‘yicha bajarishning kalendar grafigidan (mazkur ShNQning 5-ilovasidagi **1-shaklga** muvofiq);

mazkur ilovaning 1-bandidagi “**b**” kichik band ko‘rsatmalariga muvofiq ishlab chiqiladigan qurilish bosh rejsi;

sifatni nazorat qilish sxemalarini ilova qilgan holda ishlarni bajarishning texnologik xaritalari;

asosiy materiallar, konstruksiyalar va buyumlar hamda mashinalar, moslamalar va asbob-uskunalarga bo‘lgan ehtiyojlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning zaruriy asosnomalariga ega bo‘lgan tushuntirish matni.

Ishlarni bajarish loyihasi tarkibidagi asosiy hujjatlarning shakllari

1-shakl

Obyekt (ish turlari) bo'yicha ishlarni bajarishning kalendar grafigi

Nomi	Ish hajmlari		Mehnat sarfi, kishi-kun	Talab etiladigan mashinalar		Ish davomiyligi, kunlar	Smena soni	Smenadagi ishchilar soni	Brigada tarkibi
	O'l. bir.	miqdori		Nomi	Mash-smena soni				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mas'ul ijrochi									

2-shakl

Obyektga qurilish konstruksiyalari, buyumlari, materiallari va uskunalarni yetkazib berish grafigi

Qurilish konstruksiyalari, buyumlari, materiallari va uskunalarning nomi	O'Icham birligi	Miqdori	Kunlar, haftalar, oylar bo'yicha yetkazib berish grafigi
1	2	3	4
Mas'ul ijrochi			
(imzo)			

ShNQ 3.01.01-22 "Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish" shaharsozlik normalari va qoidalalariga
6-ILOVA

Yopiq ishlar dalolatnomasi

(obyekt nomi va joylashish o'rni)

bajarilgan _____

(ishlar nomi)

“ ____ ” ____ 20 ____ da

Ishchi guruh tarkibi:

Qurilish-montaj tashkilotining vakili _____

(F.I.O. lavozimi)

Buyurtmachining vakili _____

(F.I.O. lavozimi)

Loyiha tashkilotining vakili

(F.I.O. lavozimi)

(qurilish-montaj tashkilotining nomi)

tomonidan bajarilgan quyidagi: _____ ishlar bo'yicha ko'rik o'tkazdi va quyidagilar to'g'risi
ushbu dalolatnomani tuzdi:

1. Aniqlik kiritishga quyidagi ishlar taqdim etilgan

(yopiq ishlarning nomi)

2. Ishlar quyidagi loyiha bo'yicha bajarilgan _____

(loyihalash tashkilotining nomi, chizmalar raqami va sanasi)

3. Ishlarni bajarishda qo'llanildi _____

(sertifikatlar yoki sifatni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ilova qilingan
holda materiallar, konstruksiyalar, buyumlarning nomlari)

4. Ishlarni bajarishda loyiha hujjatidan chetga ♦iqishga yo'l qo'yilmagan (yoki yo'l qo'yilgan)

(chizmalarning nomeri va sanasi)

5. Ishlarning boshlanish sanasi _____

Ishlarning tugash sanasi _____

Xulosa

Yuqorida ta'kidlanganlarga asosan quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

(ishlar va konstruksiyalarning nomlari)

Qurilish-montaj tashkiloti vakili _____
(imzo)

Buyurtmachining vakili _____

(imzo)

Loyiha tashkilotining vakili _____
(imzo)

**ShNQ 3.01.01-22 “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalariiga
7-ILOVA**

Muhimlik darajasi yuqori bo‘lgan konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomasi

_____ (obyektning manzili va nomi)
da bajarilgan _____ (konstruksiyalar nomi)

“ ____ ” 20 ____ y.
(qabul qilish sanasi)

Ishchi guruh tarkibi:

Qurilish-montaj tashkilotining vakili _____
(F.I.O. lavozimi)

Buyurtmachining vakili _____
(F.I.O. lavozimi)

Loyiha tashkilotining vakili _____
(F.I.O. lavozimi)

tomonidan bajarilgan quyidagi: _____ ishlar bo‘yicha ko‘rik o‘tkazdi va quyidagilar to‘g‘risi
ushbu dalolatnomani tuzdi:

1. Aniqlik kiritishga quyidagi ishlar taqdim etilgan
(yopiq ishlarning nomi)

2. Ishlar quyidagi loyiha bo‘yicha bajarilgan _____
(loyihalash tashkilotining nomi, chizmalar raqami va sanasi)

3. Ishlarni bajarishda qo‘llanildi _____

4. Ishlarni bajarishda loyiha hujjatidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmagan (yoki yo‘l qo‘yilgan)

(chizmalarning nomeri va sanasi)

5. Ishlarning boshlanish sanasi _____
Ishlarning tugash sanasi _____

Xulosa

Yuqorida ta'kidlanganlarga asosan quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

(ishlar va konstruksiyalarning nomlari)

Qurilish-montaj tashkiloti vakili _____
(imzo)

Buyurtmachining vakili _____
(imzo)

Loyiha tashkilotining vakili _____
(imzo)